

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
АЛИШЕР НАВОЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ УНИВЕРСИТЕТИ



Педагогика фанлари доктори, профессор
Сафо Матчоновнинг 70 йиллигига бағишиланган

ТИЛ ВА АДАБИЁТ ТАЪЛИМИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

(Илмий-амалий анжумани материаллари)

2017 йил 27 январь

тасвирланган воқелик билан ҳаёт воқелигини фарқлаш жонли мулокот натижасидир. Китобхон уларни таққослаш учун бош қотиради-ўйлашга мажбур бўлади. Шу жараёнда асар воқелигини хаёлида қайта жонлантиради, қаҳрамонларнинг ўрнига ўзини кўйиб кўради, муайян хуросалар чиқаради. Кўринадики, у ҳам ўзига хос ижод қилади” [2].

Ўқитувчи ўкувчиларга яқинроқ туриш, уларнинг сўровларини тушуниш ва ифодалаш – ҳаётга яқинлашиш, китоб орқали болалар билан, яъни ҳаёт билан ишончли, чукур алоқани мустаҳкамлаши даркор.

Ўқитувчи ўкувчиларни у ёки бу адабий қаҳрамоннинг шахс сифатидаги фазилатларини англаш сари етаклаб борар экан, уларга ушбу қаҳрамоннинг ўз хатти-ҳаракатларидан кўзлаган мақсадларини чукурроқ тушуниб олишга, қаҳрамон образини чукурроқ ва асарда тасвирланганига мос равишда идрок этишга ёрдам бериши керак. Қаҳрамон ўз хулқ-атворидаги баъзи жиҳатлар билан китобхонда ўзига нисбатан меҳр-муҳабbat уйғотса ҳам, унга нимага тақлид қилиш ва нимага тақлид қиласлик лозим бўлган томонларини ажратиш масаласида ёрдам бериш керак.

Маълумки, ўсмир ёшида *одамлар орасидаги муносабатларга* қизиқиш юзага келади. Бу даврда ижтимоий муносабатлар кечинмалар уйғотибина қолмай, англаш ва ўйлаш предметига ҳам айланади. Лекин ўсмирлар асар қаҳрамонида юз берәтган жисмоний ва ақлий, ахлоқий ўзгаришлар туфайли ўзларида юзага келаётган кечинмаларни баъзан тушунмайдилар ёки етарлича тушуниб етмайдилар.

Асар қаҳрамонлари китобхонга тенгдош бўлсалар, уни қаҳрамонларнинг бир-бирларига ёрдам беришга тайёрлиги, бир-бирига берган сўзларининг устидан чиқишига ҳаракат қилишлари, ростгўйликка интилишлари ва бошқа фазилатлари ўзига тортади, айрим салбий хислатлари уларни ранжитади, ана шу хислатларга карши туриш туйғусини уйғотади.

Асар қаҳрамони фазилатларини ўрганиш иши ўкувчини маънавий жиҳатдан бойитишига шубҳа йўқ. Лекин унинг ўз ўлчовлари борлигини ҳам унутмаслик керак. Таълим жараённида ўқитувчига асар қаҳрамонига мустақил равишида тавсиф бериш ишониб топшириб кўйилса, яъни ўқитувчи уни ўйналтириб турмаса, баъзан нотўғри баҳоларини тузатиб бормаса, маънавий бойишда сусткашликка йўл кўйилади. Ўкувчilar ўзбек мумтоз адабиёти асарларини ўрганаётганда қаҳрамонларнинг руҳий ҳолатлари, шахсий фазилатлари билан боғлиқ бир қатор нотаниш тушунчаларга дуч келадилар. Уларнинг асл моҳияти англамаса ёки улардаги жiddий ахлоқий-маънавий муаммоларнинг замонавий аҳамияти очиб берилмаса, улар ўкувчilar учун қизиқарли бўлмайди. Дарҳақиқат, ёшларнинг қувончию ташвишлари, қайғулию умидларига туташ келадиган долзарб муаммолар кўтарилиган асарлар улар онгода юксак ҳаётий принципларнинг тиниклашувига ёрдам бера олади.

Асар қаҳрамонлари ҳақида, ёзувчининг асар баёнида эгаллаган мавқен тўғрисида гапиргандада, гоя тушунчасига кўп мурожаат этилади. Асар қаҳрамонларининг ўз олдига кўйган мақсадлари гоявий интилишларини ифода этади. Унинг фазилатлари ана шу интилишлардаги муқимликни, иккиланишларни ва бошқа ҳолатларни белгилайдиган кўрсаткичлар бўла олади. Қаҳрамоннинг дунёқарashi асар давомида ё ривож топади ёки маълум сабабларга кўра ўзгаради.

Бинобарин, унинг шахсий фазилатлари, гоявий интилишлари, дунёқарashi бир бутунликни ташкил этади.

Санъаткор воқеликни қайси мавқедан, қайси давр нуқтаи назаридан туриб идрок этса, уни шу давр ва мавқедан туриб, ўзи ўйлаганча, фикрлаганча ёритади, туйгува кечинмалари билан бойитади.

Йирик танқидчи ва адабиётшунос О.Шарафиддиновнинг бу ҳақдаги фикрлари янада эътиборлидир: “Бу ўринда китобхоннинг роли ҳакида ҳам алоҳида гап айтиш керак. Бадий асар китобхон учун яратилади, унинг гўзаллиги, ундаги туйғулар, фикрлар ўкувчи қалбida акс садо бериб унинг қалбida ҳам гўзаллик туйғусини уйғотса, унинг қалбидаги ҳисларни аллангалатса, уларнинг қўшилишидан асарнинг таъсир кучи вужудга келади. Бироқ китобхон ҳар хил бўлади. Уларнинг баъзилари ўткир дидли, чукур билимли бўлса, баъзилари ҳали адабиётнинг гўзалликларини тўғри пайқай олмайдиган, улардан етарли баҳра ололмайдиган бўлади. Бинобарин, санъат ва адабиётнинг тарбиявий роли, улардан максимал фойдаланиш ҳакида гапириш ўкувчининг эстетик дидини, бадий адабиётга тўғри муносабатини тарбиялаш ҳакида ҳам гапириш демакдир” [3].

Таълим ва тарбияда адабиётнинг, китобларнинг аҳамияти бекиёс. Ўкувчи бадий асарни ўқиётганда ўз ҳаёти билан эмас, балки бадий асарда акс этган ҳаёт билан яшайди. Адабий асардаги образга қўшилиб ҳаракат қиласи, ҳаётий қийинчиликларни енгиш йўлларини излайди, қаҳрамони хато қилса – куюнади, зафар кучса – суюнади, қийинчиликлардан кутулса - хурсанд бўлади, унинг бир маромдаги ҳаётга қайтишидан таскин топади.

Ўқиши санъати – ўкувчининг ижодий, шахсий аҳамиятга молик маънавий фаолияти. Бу фаолият ўқишининг тарбиявий қийматини олдиндан белгилаб беради, ўкувчининг умумий маънавий, гоявий ва ахлоқий ривожланишига, ўкувчи шахсининг ижодий ўсишига таъсир кўрсатади.

Демак, ёшларни китобхонликка қизиқтириш, ёшига мос бўлган асарларни тавсия этиш, таҳлил қилишда турли метод, восита ва усуllibardan ўринли фойдаланиш, ўқилган асарлар юзасидан ҳаётий хуросалар чиқаришига ўргатиб бориш ҳар бир педагог олдида турган масъулиятли вазифадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

- 1.Ислом Каримов. Юксак маънавият сингилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. 136-бет.
- 2.Сафо Матжон. Китоб ўқишини биласизми? – Т.:Ўқитувчи, 1993, 17-бет.
3. Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. Адабий-танқидий мақолалар. –Т: 1979. - 21 б.

ALISHER NAVOIY IJODIDA ADOLATLI SHOH TALQINI.

(Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonini akademik litseylardada o’rganish)

Oqila TURAKULOVA, TTYSI qoshidagi 1-akademik litsey o’qituvchisi

Adabiy ta’limda badiiy matnni, uning zamiriga yashirin, sirli, jozibali ifodalarni va bu ifodalardan kelib chiqadigan mantiqiy ma’nolarni ilg’ash o’qituvchi uchun oson, lekin hali hayot tajribasi kam, badiiyat olamining sirlarini anglash malakasi

shakllanmagan litsey o'quvchisi uchun ancha murakkab. Shuning uchun ham o'qituvchida badiiy asar timsollarining ruhiy-hissiy holatlarini o'quvchilarga anglatish, ularning yoshiga, ruhiga, o'zlashtira olishiga mos tarzda ularning ko'ngil mulkiga aylantiruvchi adabiy vositachi bo'lishi lozim. Doston matnini o'quvchi ma'naviy mulkiga aylanishi o'qituvchining mahoratiga bog'liq. O'quvchilar ustozga ergashib, badiiy asarni kashf etishga, asar matni zamiridagi jozibani anglashga odatlanadi. Bu hol ularning kitobxonlik darajasini, kitob o'qish madaniyatini oshiradi, badiiy so'z ustida ishlashga o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan "Saddi Iskandariy" dostonini o'qituvchi sujet mazmunini tanishtirishdan boshlashi lozim.

Bu asar dunyodagi eng mashhur siymolardan biri jahongir Iskandarga bag'ishlangan. bo'lib, "Xamsa"ning yakunlovchi dostonidir. Chiqishda uni Iskandar Zulqarnayn deb ataydilar. "Zulqarnayn" so'zining ikki ma'nosibor: birinchi ma'nosi - shoxli degani. Ikkinchini ma'nosi – kun chiqish va kun botish hukmdori degani.

"Saddi Iskandariy" "Xamsa"dagi eng yirik dostondir. U 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Asar voqealari Iskandarning tug'ilishidan boshlanadi. Bo'lajak Iskandarning otasi Faylaqus tangridan farzand so'raydi. Bir kuni ovdan qaytarkan, shaharga kiraverishdagi vayronada yangi ko'ziyorigan ayloga duch keladi. Chaqaloq o'g'il bola bo'lib, tirik, ona esa o'lib qolgan edi. Shoh o'likni dafn ettiradi, bolani o'g'il qilib oladi. Unga Iskandar deb nom qo'yib, tarbiyasi bilan shug'ullanadi. O'limi oldidan esa uni valiahd qilib tayinlaydi.

Dostonning keyingi bobida himmat haqida gap ketadi. Shoир Iskandar tarixini yozmoqchi emas. Iskandar bilan bog'liq voqealarning ma'nosini ochmoqchi. Shuning uchun voqealar izoh va talqinlar, hikoyatlar, savol-javob va lirk chekinishlar bilan almashinib keladi. Iskandar taxtga chiqar ekan, o'z atrofiga olimlarni to'playdi, ularning maslahati bilan ish ko'radi. U taxtni egallashga qiziqmaydi. Otasi unga taxtni topshirganida qattiq tashvishda qoladi. Oxiri xalqni yig'ib, maslahat soladi. Xalq uning shoh bo'lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastunga toj kiyigizadi.

Dostonda oldin adolatning ta'rifi beriladi. Buta'rif hadislari vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. So'ng Hindistonni olganda elga qilgan birligina adolati bilan jannatga tushgan Mahmud G'aznaviyhaqidagi hikoyat iloya qilinadi. "Hikmat" bobidan esa Iskandarning Arastu bilan adolat haqidagi savol-javobi o'tin olgan. Arastu fikricha, shoh odil bo'lsa, olam unga tobe bo'ladi.

Hazrat Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni prototipi aslida bizning ajdodlarimizdan biri emasmiyan, degan fikr ko'pchilikni qiziqitrsa kerak. Negaki, har bir asarida milliylik ufurib turgan, turkiylar sha'nini yuksaltirishdek oliyjanob maqsad yo'lida butun umrini sarflagan buyuk shoир "Xamsa"dek yirik asarida o'z maslagini yanada kengroq amalga oshirishga intilgan bo'lishi tabiidi.

Asar bosh qahramoni kimligini aniqlash uchun, bizningcha, asarga oddiy kitobxon, badiiy adabiyot shaydosi sifatida yondashishning o'zi kamlik qiladi. Dostonni uyg'oq qalblı inson nigohi bilan Alisher Navoiy yashagan davr tarixini teran tahsil qilgan holda mutolaa qilmoq kerak. Ma'lumki, Alisher Navoiy yashagan davrda ilmiy adabiyotlar asosan arab tilida, badiiy adabiyot esa fors tilida bitilar edi. Bu bir necha yildan beri davom etib kelayotgan an'analigi bois, mazkur tillarning

nufuzi baland edi. Boz ustiga forsiylar "Shohnomaxonlik", "Xamsaxonlik" qilishar va forsiyda shunday mumtoz asarlar bitilgani bilan faxrlanishar edi. Ayrim saroy shoirlari esa ochiqdan-ochiq turkiy tilni kamsitardi ham. Shunday vaqtida Alisher Navoiydeк shoир jim turishi mumkin emas.

"Saddi Iskandariy" va uning bosh qahramoni kim edi?

Dostondagi Iskandar bizga tarixdan ma'lum Aleksandr Makedonskiyga aslo o'xshamaydi. Mutaxassislarning aytishicha, Qur'onи karimda zikr etilgan Zulqarnayn Akbar bilan Aleksandr Makedonskiy boshqa-boshqa odamlar. Makedoniyalik Iskandar Ollohning yagonaligiga imon keltirgan mo'min emas. Ya'juj va Ma'jujudan himoya devorini qurgan Zulqarnayn esa mo'min odamdir. "Himoya devori"ni makedoniyalik Aleksandr qurgan bo'lganida uni qadimshunos olimlar allaqachon topgan bo'lar edi.

Ammo, olimlarni qiyab kelayotgan muammo shundaki, Aleksandr Makedonskiy bilan Qur'onи karimda zikr etilgan Zulqarnayn obrazi qaysi davrda birlashib ketgan? Aniqrog'i, Zulqarnaynga Iskandar yoki Iskandarga Zulqarnayn oti qachon, qaysi xalqqa mansub olim yoki shoир tomonidan qo'shib yuborilgan?..

Ba'zi olimlarning fikricha, dostondagi obrazlar haqiqiy tarixiy shaxslardir. Jumladan, Arastu - Aristotel, Iskandar - Aleksandr. Shoир asarida ularni ulug'lamagan, o'zidan oldingi xamsanavislar kabi ular vositasida ideal shoh obrazini yaratgan.

Navoiy o'z salaflaridan farqli o'laroq, dostondagi ideal shoh obrazini orzu-umidlari, samoviy xayollaridan yaratmagan. Uni haqiqiy hayotdan topgan. Bu esa o'z navbatida doston voqealarini reallashtirishga xizmat qilgan.

Asarning XIX bobi quyidagi so'zlar bilan boshlanadi "Iskandarning saltanat tojidin sarkashliq qilib, xilofat taxtidin ayoq tortqoni va Rum ahli boshlarin oyog'iga qo'yub, aning maqdamidin taxt poyasin baland qilib, toj qadrin arjumand qilg'onlari va aning adli aynining quyoshi bila zulm shomining xuffoshin ko'r etib jahonni yorutqoni va zulm ahlining zulmatdek olam yuzidin qiroq tutqoni".

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Filipp Ikkinci (Faylaqus) dostonda tasvirlanganidek, Eron shohiga boj to'lab turuvchi vassal davlat rahbari emas, aksincha, buyuk imperiyachilik vasvasasiga uchragan tajovuzkor hukmdor bo'lgan. U miloddan oldindi 359 yildan 338 yilgacha Bolqon yarim oroli atrofidagi Fokida, Fessaliya, Xalkidika, Frakiya va boshqa davlatlarni bosqinchilik yo'li bilan Makedoniyaga qo'shib olgan. 338 yili Xeroniya yaqinida yunon polislarning birlashgan qo'shinlarini tor-mor keltirib, butun Yuhonistonni Makedoniyaga bo'ysundirgan. U Eronga hujum boshlash arafasida turganda qizining to'yi kuni o'ldirilgan.

Shu birligina misoldan ayon bo'ladiki, "Saddi Iskandariy"dagi Faylaqus bilan tarixiy shaxs Filipp Ikkinci o'rtasida mutlaqo o'xshashlik yo'q. Aksincha, bu ikkisi tamomana boshqa toifa odamlar. Shuningdek, ayni masalaga tarixiylik yuzasidan baho berilsa, otasi dushmanlari tomonidan o'ldirilib, vaziyat toju-taxtni kuch bilan o'z qo'lida ushlab turishni taqozo qilib qolgan tig'iz bir paytda Aleksandrning taxtga chiqishdan bosh tortib tamanno qilishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Zero, bir lahzalik xotirjamlik uning ham boshini olib ketishi hech gap emasligiga har qanday siyosatdan

yiroq odamning ham aqli yetadi. Demak, kamtarlik, xokisorlik, adolatparvarlik xususidagi bu bob Aleksandr Makedonskiy haqida emas.

Asarda tasvirlangan voqealashishni Alisher Navoiydan u qadar uzoq bo'lmagan davrda yuz berman.

Dostonning XXVII bobida yosh, tajribasiz, ammo jasoratli hukmdor Iskandar va hisobsiz qo'shini bo'lgan Doro bilan to'qnashgani tasvirlanadi. Doroning qo'shini Iskandarnikidan bir necha barobar ko'pligi aytildi. Urushda Eron shohining ikki nafar sarkardasi xiyonatga yuz tutadi. Ular jangning borishini kuzatayotgan Doroning ikki yonidan kelib unga tig' sanchishadi. Shu bilan jang nihoysiga yetadi. Doroning vasiyatlarini tinglagan Iskandar vafotidan so'ng uni izzat-ikrom bilan dafn etib, o'z hukmdorini sotgan xoinalarni quyidagicha jazolaydi:

Topib chunki Doro ishidan farog',

Tutub iki qotilni aylab so'rog'.

Yana bir voqealashishni Dostonning XXXV bobida jahondorlik iddaosi bilan chiqqan Iskandar qishni Qorabog'da o'tkazadi. Bu yerda u ilm-u hikmat ahllari, harbiy sarkardalar bilan majlislar tuzadi, yaqinlariga mehribonliklar ko'rsatib, ularga Tangridan madad so'raydi. Bu ishlardan forig' bo'lgan chog'larda ot minib, Aras daryosi bo'yiga shikorga chiqib, daryo bo'yidagi o'rmonlarni sayr qilib hordiq chiqaradi.

Ki chun qildi qishloq azmiga shoh,

Qarobog'i Arronni oromgoh...

"Saddi Iskandariy"da dostonning bosh qahramoni Ko'hak (Zarafshon) daryosi bo'yida bir go'zal shahar bino ettingani va uni Samarcand atagani haqida gap boradi.

Iskandar otodi Samarcand ani,

Samarcandi firdavsmxonand ani.

Dostonning XXXI bobida Iskandarning vafotidan so'ng dilbandining qabrimi makon etib tun-u kun farzand dog'ida o'rtanayotgan onaga tasalli berish maqsadida yetti donishmand tashrif buyuradi. Ular - Aflatun, Suqrot, Balinos, Bugrot, Hurmuz, Farfinyus, Arastulardir. Dostonda Arastu - piri komil, Iskandar esa komillikka intilgan murid timsolidir. Iskandar asar rivojida bot-bot Arastuga o'zi yechimini topolmayotgan masalalar yuzasidan savollar bilan murojaat etadi va ustozidan olgan javoblari bilan bilimini boyitib boradi.

Demak, Iskandar ramziy obraz, xolos. Shoir asarida tarixiylik emas, badiiyilik asosiy o'rinni tutadi. Shu jihatdan Iskandar timsoldidaadolatli shoh haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Ammo shuni ham unutmaslik kerakki, asardagi ijobjiy obraz prototipini topish ijodkorning ixlosiga bo'liq hodisa. Alisher Navoiy dahosi ana shu hodisaga katta masifikativ vazifa yuklab yuborgan. Bundan tashqari, shoir asarni yozishda juda ko'plab tarixiy adabiyotlardan foydalanganini ham ta'kidlab o'tgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy. http://www.kutubxona.com/Turkum:Alisher_Navoiy
2. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining darslik majmuasi. T.2006
3. A.Rafiyev. L.Rafiyeva. "O'zbek tili va adabiyoti". T.2008
4. A.A'zamov. Munojotnoma. T.2001
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T."Sharq". 2002

ADABIYOT DARSLARIDA „BOBURNOMA“ ASARINI O'RGANISH

H.SUYUNOV, Navoiy DPI p.f.n.,
X.BEZOROVA, o'qituvchi

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim bosqichga kirdi. Jumladan, adabiyot o'qitish jarayonida foydalanish orgali talabalarning mustaqil fikrlashlari va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga erishish mumkin.

Adabiyot darslarida o'rganilayotgan badiiy asarlar tahlilining ko'pincha tayyor variantlari beriladi. Obrazlar darslik mualliflari xohishiga ko'ra tahlil qilinadi, ya'ni o'quvchining asarni o'qib chiqishiga hojat qolmaydi. Talaba asarni to'liq o'rganib chiqishini xohlagan o'qituvchi esa o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llagan holda darslarni tashkil etishi kerak. Bunda eng qulay o'qitishning innovatsion texnologiyalariga asoslangan "o'z-o'ziga rejissor" usuli hisoblanadi. Shu usulni tanlagan o'qituvchi talabalarga badiiy asarni to'liq o'qish kerakligi va e'tibor qilinishi kerak bo'lgan topshiriplarni oldindan berib, butun jarayonni nazorat qilib borishi kerak bo'ladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini o'rganish uchun oldindan talabalarga "Boburnoma" asarini o'qib kelish topshirig'i beriladi. Dars amaliyotidan kelib chiqqan xolda mashg'ulotni o'tishda "o'z-o'ziga rejissor" usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda asarni talabalar bilan birga o'qib chiqqach, unda tasvirlangan voqealarni jontantirdik. Aktyorlar ham, rejissorlar ham - talabalar. O'zlarining filmlarini yaratish uchun ularning qanchalik asarni diqqat bilan o'qiganliklarini namoyon etish mumkin. Bu darsni "Dars-tadbir" shakli orqali tashkil etiladi. Darsni bunday atalishiga sabab:
-birinchidan, guruuhlar bellashadilar;
-ikkinchidan, o'z imkoniyatlarini to'la namoyon qilish uchun ularga katta sahna kerak;
-uchinchidan, 3ta guruhda 80 nafardan ortiqroq talaba ta'lim oladi, demak darsni "Faollar zali"ga ko'chirish kerak va hokazo.

Olingan videotasvirlar ovozsiz namoyish etildi va uni tomosha qilib turgan talabadan, avvalo, tasvirni izohlab berish, so'ngra "klaster" usuli orqali "Bobur shoh va shoir" mavzusi ostida fikrlarni yozib borish topshirig'i berildi. Ushbu darsda hali ko'pchilik e'tiboriga ma'lum qilinmagan usullardan ham foydalanildi (bu usullarni faoliyatizingizda qo'llab korishingizni tavsya etamiz):

1. "Dars - tadbir" shakli : bu dars katta auditoriya - ya'ni 2 yoki 3 guruh ishtiroyida tashkil etilishi mumkin. Shu bois darsga ajratilgan vaqt 80 daqiqani tashkil etishi kerak. Bu shaklda dars tashkil etilganda talabalarning avvalom bor guruhlararo raqobatini tashkil etish, golaversa malumotlar ko'laming kengligi o'tilayotgan mavzuni atroflicha, to'liq o'rganish imkonini beradi.
2. "Teleko'rsatuv" shakli : bunda dars rejasini teleko'rsatuvlar nomi asosida tashkil etish mumkin. Ushbu darsda "TV- Mehmon", "Ko'rsatuvlar tartibi", "Dil nomalari", "Mumtoz she'riyat", "Gazetalar sharhi", "Oyla! Izla! Top!" kabi teleko'rsatuvlar nomlaridan reja o'rniida foydalanildi.
3. "Rekord" usuli bunda: